

2-TOM, 4-SON

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA HAYVON NOMLARI QATNASHGAN  
IBORALARNING O'ZARO TAHLILI

**Sharipova Sarvinoz**

SamDChTI ingliz tili o'qituvchisi

**Ihomova Ruhshona**

SamDChTI talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilidagi frazeologik birliklar va iboralar haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Hamda, ingliz va o'zbek tillaridagi hayvon nomlari ishtirokidagi iboralarning tarjimalari berilib, ular o'zaro solishtirilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ibora, frazeologizm, frazema, frazeologik birikma, frazeologiya, tarjima.

Nutq jarayonida fikrimizni faqatgina so'zlar yordamida emas balki, ikki yoki undan ortiq bo'lgan so'zlarning bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan yoki nutqqa tayyor holda kirib kelgan birliklardan ham ko'p foydalanamiz[1]. Bunday birliklar ibora yoki frazeologizmlar deb ataladi. Iboralar tilning, asosan, badiiy va so'zlashuv uslubida keng va ko'proq qo'llaniladi, nutqni ta'sirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Iboralar tilshunoslikda bir nechta nomlar bilan yuritiladi, bular: frazema, frazeologizm, frazeologik birikma. Iboralarni o'rganuvchi bo'lim tilning mustaqil birligi sifatida XX asrning yarmidan boshlab o'rganilib kelinmoqda[2].

Frazeologiyani o'rganish masalasi o'tgan asrning 20-40 yillardagi o'quv adabiyotlarda – Ye.D.Polivanov, S.Abukamov, L.A.Bulaxovskiy asarlarida ko'rib chiqilgan. G'arbiy amerika tilshunosligida frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida o'rganilmaydi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologizmlarning lingivistik mohiyati masalasi hali hanuzgacha tortishuvlar ostida qolmoqda. SH.Balli frazeologiyaning asosiy belgisi uning o'rnini o'sha iboraning ma'nosiga to'g'ri keladigan so'z bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligi deb tahlil qilgan bo'lsa, B.A.Larin esa uning asosiy belgisi frazeologik birliklarni tashkil qiluvchi alohida so'zlarning ma'nosidan o'sha birliklarning umumiy ma'nosi kelib chiqmasligidadir, deb hisoblashgan.

Yana bir olim, U.Fiks frazeologizmlarni erkin gap bilan taqqoslaganda fe'llar ma'nosining mos kelishi yoki kelmasligiga ko'ra ikki turini farqlagan.Frazemada so'z yasaliqidagi kabi alohida affikslar mavjud emas[3]. Demak, tilshunos olimlar



## 2-TOM, 4-SON

frazeologizmlarni turli xil jihatlarni o'rganishga urinishgan va hanuzgacha ham o'rganib kelmoqda.

Frazeologizmlar barcha tillarda juda qiziqarli chunki ularni so'zma-so'z yoki to'g'ri tushunish qiyin va ba'zi iboralar ko'chma ma'noda ham qo'llaniladi. Iboralar paydo bo'lishi va rivojlanishi asosan mamlakat tarixiga va madaniyatiga, dunyoqarashi, urf-odatlar, kasbi, turmush tarzi hamda voqelikka munosabati bilan uzviy ravishda bog'liq. Frazeologizmlar tilni, uning mazmun-mohiyatini boyituvchi xazina hisoblanadi, bular qo'llanish doirasiga ko'ra turli xil mavzularga oid bo'lishi mumkin.

Kill two birds with one stone - bir o'q bilan ikki quyovni o'ldirmoq[4].

Whenever I jog, I like listening to English rap music. Which I mean that, "I kill two birds with one stone; I stay fit whilst I improve my English language skills". Ingliz tilini yaxshilash bilan birga, sog'lom qolaman.

Ushbu iborada bir hayvonning boshqa bir hayvonga qiyoslangan holatini ingliz ham o'zbek tilida uchramiz, ya'ni quyovni ham qushni ham tutish juda qiyin, shu sababli ikki hayvon bir-biriga o'xshatilgan va bu frazema orqali, o'z ishiga puxta, so'zni birovga bermaydigan, ustasi farang inson xususiyatlari nazarda tutilgan.

Like herding cats [5] - igna bilan quduq qazgandek.

Managing a political party is a lot like herding cats. Siyosiy partiyaning boshqarish xuddi igna bilan quduq qazgandek mushkuldir.

Bu iborada katta ko'lamdagi ishlarni tashkil qilish yoki hech bo'lmaganda katta kuch va sabr toqatini talab qilmasdan amalga oshirilmasligini ta'kidlash uchun ishlatilishi mumkin.

It is raining cats and dogs – chelak-chelak yomg'ir quymoq.

It is raining cats and dogs, I am worried about how my kids will reach home. Sharros yomg'ir quymoqda, men esa bolalarim qanday uyga yetib kelishidan xavotirdaman.

Bu iboraning ildizi o'rta asrlar xurofotlar so'zi yoki Britaniya ko'chalarida bo'ronli suvlar tomonidan olib ketilgan o'lik hayvonlardan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. O'sha kuchli yomg'irdan keyin Jonatan Swif "Shahar yomg'iri" [City shower] nomli she'rida suv toshqini tufayli ko'chalarda ko'plab it va mushuklarning o'lik tanasi qolib ketganini aytadi.

Have a cow - tepa sochi tikka bo'lmoq[6].

Our teacher had a cow when nobody prepared for the lesson. Hech birimiz darsga tayyor emasligimizni bilgach o'qituvchimizning tepa sochi tikka bo'ldi.

Ushbu iborada "had a cow" birikmasi biror narsadan g'azablanish, xafa bo'lish yoki hayajonlanishni anglatadi. XX asrning boshlarida va o'rtalarida Qo'shma shtatlarda paydo bo'lgan hamda bu ibora insonlarga nisbatan ishlatiladi. "Tepa sochi tikka bo'ldi" iborasi



## 2-TOM, 4-SON

o'zbek tilida ko'chma ma'noga xos bo'lib o'z ma'nosida "jahli chiqdi" degan ma'noni beradi.

Quiet as a mouse-qo'y og'zidan chop olmagan.

My twins couldn't be mote different; one is a gregarious cheerleader and the other is quiet as a mouse. Mening egizaklarim boshqacha bo'lishi mumkin emas edi; biri quvnoq, ikkinchisi esa qo'y og'zidan cho'p olmagan.

Bu iborada ingliz tilida "sichqon" o'zbek tilida esa "qo'y" hayvonlari orqali yuvosh, nihoyatda beozor insonlar nazarda tutilayabdi. Bunga misol qilib, juda ham ko'p nutqimizda ishlatadigan birikmalarimizdan biri "qo'ydek yuvosh" iborasidir.

Ingliz va o'zbek tilida bunga o'xshash frazeologik birikmalar juda ko'p va ular quyidagilar:

1. Every dog is a lion at home - Har kim o'z uyida sher.
2. Ride the high horse – Otdan tushsa ham egardan tushmaydi.
3. A snake in the grass - Qo'ynida ilon asramoq.
4. As cunning as a fox - Tulkidek ayyor.
5. Let the cat out of the bag - Dardini ochmoq.
6. A clever dog - Ko'ngli bo'sh.
7. To kill like a dog - Itdek otib tashlash.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, biz nutqimizda turli xil yaxshilikka undovchi iboralardan foydalanamiz, hayvon nomlari ishtirokidagi iboralar ijodkorlik, hazil yoki kinoyani ko'rsatadi va ular so'zlovchilarning hayoti, ongi va ba'zan kechinmalari haqida tushuncha beradi. [Qo'yni - yuvosh insonga, tulkini -ayyor, mug'ombir insonga o'xshatilishi kabi].Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, hayvon nomlari bilan kelgan frazeologik birliklar o'ziga xosligi, emotsionallikni ifodalashiga ko'ra boshqa iboralardan farqlanadi. Iboralar ko'p foydalanadigan kishilarining so'z boyligi, fikrlashi bilan boshqalardan farqlanib turadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmatov.F., Tilolova.G.[2013]. Chet tilini o'qitishda xorij tarjibasi va grantlardan foydalanish.Chet tilini o'qitishda metodika, malaka va tarjiba,259-261
2. Rahimova.M, Muhammadqodirova.F [2022] "O'zbek tilida million xarakter bilan bog'liq ishlarning lingvokulturologik tadqiq".
3. Qosimova.N "Frazeologiya va olimlarning qilgan tadqiqotlari".
4. SH.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022 B: 194



**2-TOM, 4-SON**

5. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).

6. Ergashevna, S. N. Pedagogical Aspects of Improving the System of Distance Training of Public Education Workers. JournalNX, 107-110.

7. Alavutdinova, N., & Ergasheva, L. (2024). COMMUNICATIVE CHARACTERISTICS OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE. Science and innovation, 3(B1), 29-34.

8. CAMBRIDGE International Dictionary of Idioms. Cambridge University Press 1998.

9. <https://www.theidioms.com/privacy-policy/>.

10. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. Solution of social problems in management and economy, 2(13), 5-12.

